

YAPON TILIDA TARJIMANING TURLARI VA YAPON VA O'ZBEK TILLARIDA TARJIMA JARAYONIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Jalolova L.Sh.¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada yapon tilida tarjima jarayoni va yapon va o'zbek tillaridagi tarjima jarayonlaridagi farqli belgilar haqida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, tarjimaning turlari va yapon tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonidagi yuzaga keladigan dolzarb muammolar yuzasidan izlanishlar olib borildi hamda tahlil qilindi. Tarjima jarayonidagi frazeologik birliklar, milliy o'ziga xos so'zlarning tarjima qilish jarayonlari va ekvivalentlik hodisalari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: ekvivalentlik, realiya, frazeologik birlik, badiiy tarjima, yozma tarjima, sinxron tarjima

Kirish

Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o'ziyoq uning shakllangan tamoyillari, an'analari bo'lganligini ko'rsatadi. Hozigi davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab xalqlar tilidan o'z ona tiliga ilmfan va madaniyatning o'nlab sohalariga oid materiallarni tarjima qiladi.

Tarjima nusxa ko'chirish emas; tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari, tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Tarjimachilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafavutlarning mavjudligini hisobga oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Yapon tilida tarjimonga nisbatan:

翻訳者- (honyakusha) – yozma tarjimon;

通訳者- (tsuyakusha) – og'zaki (sinxron) tarjimon atamaları ishlatiladi.

Masalan, Edo va Meiji davrlariga nazar tashlasak, Edo davrida 通詞- (つうじ-tsuiji, 通事-(つうじ-tsuiji) –tarjimon ma'nosini berib asosan golland tili tarjimoni bo'lgan. Bundan tashqari bojxona xodimi, savdo tovarlarni baholovchi shaxs bo'lgan.

Meiji davrida 翻訳者-(honyakusha)-tarjimon atamasi paydo bo'lib, asosan bu adabiyotning rivojlanishi sababli yozuvchilar orasida ko'p bo'lgan.Tarjimashunoslikda tarjimaning turlarini ularning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib ajratish ham amalga oshirib kelinmoqda, unda tarjimaga aloqador har ikkala tildagi matnlarning shakli emas, balki ularning mazmuni yoki mohiyatiga tayanib tasniflashtiriladi [Фёдоров А.В. 1983.]. L. S. Barhudarov asl nusxa tili va tarjima tili matnining qanday shaklda berilishiga ko'ra tarjimaning to'rt asosiy turini ajratadi:

1) og'zaki-og'zaki (話す翻訳 - はなすほんやく) yoki(口頭翻訳 - こうとうほんやく) 2) yozma-yozma (書面による翻訳 - しょめんによるほんやく)

3) og'zaki-yozma; 4) yozma-og'zaki

Bu tarjima turlari ichida og'zaki-og'zaki tarjima nazariyasini 2 turga bo'lib o'rganiladi: 1) og'zaki izchil tarjima(一貫した口頭翻訳 - いっかんしたこうとうほんやく) 2) og'zaki sinxron tarjima(同時通訳 - どうじつうやく)

1. V. N. Komissarovning tarjima tasnifi quyidagicha ta'riflaydi: 1) badiiy tarjima(芸術的な翻訳 - げいじゅつてきなほんやく) 2) informativ tarjima - (参考になる翻訳- さんこうになるほんやく G'. M. Xoshimovning tarjima tasnifi haqida esa quyidagilarni misol tariqasida olishimiz mumkin: 1) badiiy tarjima(芸術的な翻訳 - げいじゅつてきなほんやく) 2) nobadiiy tarjima (虚構でない翻訳 - きょこうでないほんやく) Akutagava Ryunoske "Do'zax azoblari" hikoyasidan parcha orqali yapon tilidan o'zbek tiliga tarjimada so'z tanlash muammosini ko'rib chiqamiz. Asliyat: 見た所は唯、背の低い、骨と皮ばかりに瘦せた、意地の悪さうな老人でございました To'g'ridan-to'g'ri tarjimasi: Men ko'rganim past bo'lyi, ozg'in, faqat suyaklari va terisi bo'lgan yomon bir chol edi(bu tarjimada badiiy bo'yoqdorlik mavjud emas, g'arizlik, so'z qo'llashda uslubiy xatolik mavjud). Yapon tilidan rus tiliga Nataliya Isayevna Feldman tarjimasi: Посмотришь на него – такой низенький, тощий, кожа да кости, угрюмый старик. Rus tilidan Saydi Umurov tarjimasi badiiy tarjima: Ko'rsangiz, pakana, ozg'in, eti ustuxoniga yopishgan, qovog'i soliq chol deysiz. Rus tilidan Saydi Umurov

¹ Jalolova Laylo Shavkatovna, Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti 4- bosqich talabasi

tarjimasi badiiy tarjima: Ko'rsangiz, pakana, ozg'in, eti ustuxoniga yopishgan, qovog'i soliq chol deysiz [Фёдоров.1983].

Muhokama va natijalar

Tarjimada Realia madaniyatga xos moddiy elementlar uchun so'zlar va iboralardir. Realia so'zi o'rta asr lotin tilidan olingan bo'lib, u dastlab „haqiqiy narsalar“ degan ma'noda, ya'ni mavhum narsalardan farqli ravishda mavjud narsalarni anglatadi. Realiani chuqur o'rganishni birinchi bo'lib amalga oshirgan bolgar tarjimonlari Vlahov va Florin so'zning zamonaviy ma'nosini yaratdilar. Ular shuni ko'rsatadiki, realia juda milliy ohangga ega bo'lgani sababli, ular ko'pincha tarjima uchun qiyinchilik tug'diradi. Realiani izohlab bayon qilish - bu usulda asliyatdagi milliy o'ziga xos so'zni tarjima qilishga harakat qilinmaydi. Realiani tarjimada asliyat tilidagi izohli lug'atda berilgan ma'nolarini tushuntirish orqali tarjima qilinadi. Ko'p tarjimonlar realiyalarni ag'darishda tranlitteratsiya yo'li bilan tarjima qilib, havola qismida to'liq tarzda izoh berishni maqul ko'rishadi. Bu usul hozirgi davr tarjimashunoslari tomonidan to'g'ri tarjima qilish usullaridan biri sifatida ko'rilib, keng tarzda realiyalarning tarjima jarayonida qo'llanib kelinadi. Masalan: 金沢 かなざわ – [kanazawa] – Yaponiya shaharlarining birining nomi; 酒 さけ – [sake] – Yaponlarning o'tkir ichimligi;

Kontekstual muqobil bilan almashtirish (ekivalent) – o'xshashlik, birbiriga yoki boshqasiga o'xshashlik, ya'ni muqobil tushuncha bilan berish nazarda tutiladi. Bu usul bilan realiani tarjima qilishda shu xalqqa tegishli va bir xil vazifa bajaradigan muqobil ya'ni aynan kerakli so'zni topa bilish muhim hisoblanadi. Masalan: 茶碗 ちゃわん – [chavan] – piyola ; 先生 せんせい – [sensei] – ustoz; Shu yerda tarjimada ekvivalentlik to'g'risida so'z yuritishni maqsad qildik. Tarjima tillaro muloqotning alohida turi sifatida asosiy e'tiborni ikki til tizimining semantik jihatiga qaratishni taqozo etadigan ijodiy jarayondir. ekvivalentlik tarjimaga berilgan "bir tildagi matnni o'zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish" kabi ta'rifga mos keladi. asliyat va tarjima matnlari mazmunlari orasidagi umumiylik darajasi ekvivalent sifatida tan olingan boshqa tarjimalarga nisbatan nihoyatda past. Shunday qilib, ekvivalentlikning ushbu turida asliyatdagiga nisbatan tarjimada go'yo mutlaqo boshqa narsa haqida gapirilyotgandek tuyuladi. Ushbu tarjima turiga ekvivalent sifatida tan olingan quyidagi jumla tarjimasini misol tariqasida keltirish mumkin: 彼女 かのじょ は男 おとこ の方 ほう に怖 こわ い顔 かお をした。 [kanojo ha otoko no hou ni kowai kao shita] Qiz yigitga nafrat ko'zi bilan qarab qo'ydi. Bu yerda asliyat va tarjima matnlari orasida mazmuniy umumiylik mavjudligi tufayli ekvivalentlik yuzaga kelgan.

Ba'zi yapon frazeologik birliklari o'ziga xos metaforik ma'noga ega bo'lib, ularni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish tushunarsiz natijalarga olib kelishi mumkin. Masalan: 「猿も木から落ちる」 (saru mo ki kara ochiru) – "Hatto maymun ham daraxtdan yiqiladi" O'zbek tilida bu ibora "Otning kallasini yegan ham adashadi" yoki "Ustozning ham xatosi bo'ladi" tarzida moslashtirilishi mumkin. Ko'plab idiomalar milliy urf-odatlar, tarix va madaniyat bilan bog'langan bo'lib, ularni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish qiyin. Masalan: 「花より団子」 (hana yori dango) – "Gullardan ko'ra shirinlik". Bu ibora yaponcha hanami an'anasiga bog'liq bo'lib, unda odamlarga go'zallikdan ko'ra amaliy narsalar muhimroq ekani ifodalanadi [M.Sh.Omonova.2023]. Buni o'zbek tilida "ishq emas, non kerak" yoki "ko'rkamlik emas, foyda muhim" tarzida ifodalash mumkin.

XULOSA

Yapon frazeologik birliklarini tarjima qilish jarayonida madaniy tafovutlar, metaforik ma'nolar va kontekst muhim rol o'ynaydi. Eng samarali yondashuv – bevosita ekvivalent topish, o'xshash idiomani tanlash, izohlab tarjima qilish yoki madaniy moslashtirishdir. Tarjimon kontekst va maqsadli auditoriyani hisobga olib, eng mos usulni tanlashi lozim. Xulosa o'rnida, realiyalarni tarjima qilishda tarjimon o'z mahoratini ko'rsatib, barcha usullarni qo'llab ko'rishi hamda eng munosib yo'l orqali tarjimoni amalga oshirishi kerak. Bunda realiyalarni tarjimada berishning eng samarador usuli translitteratsiya ekanligi aniqlandiki, u originaldagi xos so'zni to'liqroq ifodalash imkonini beradi. Translitteratsiya orqali berilgan so'z izohlanmasa, tushuntirilmasa, kitobxon tasvirlanayotgan voqea-hodisalar va so'zlar bayoniga tushunmay qoladi. Shuningdek, milliy realiyalarni tarjimada ifodalanishini o'rganish birinchidan badiiy asardagi milliy o'ziga xosliklarni ifodalash usullarini aniqlab, tarjimonlar uchun amaliy, nazariy bilimlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Xodjayev Ma'rufxodja Sunnatovich. *Realiyalarning Tarjima Qilishdagi Murakkabliklari* (yapon tili misolida) *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423*
- [2]. Фёдоров А.В. *Основы общей теории перевода*. М.: Высш. шк., 1983.
- [3]. Qutbiddinova Noila Rivojiddin qizi. *REALIYA TUSHUNCHASI VA UNING TILSHUNOSLIKDAO'RGANILISHI*. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3), March, 2023*

[4]. M.Sh.Omonova, *“Tarjima Nazariyasi Va Amaliyoti”. O‘quv qo‘llanma., Toshkent-2023. «Zebo Prints». 217 bet*